

O'QITUVCHINING NUTQ TEXNIKASI

Ziyodullayeva Ra'no

Sattorova Vasila

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari

ANNOTATSIYA O'qituvchining dars o'tish faoliyatida nutq madaniyatiga e'tiborli bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchi bir qancha qoidalarga amal qilishi darkor. O'qituvchi nutqi adabiy til me'yorlariga amal qilishda o'quvchiga namuna bo'la olishi kerak. Adabiy til me'yorlarining buzilishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun o'qituvchi va o'quvchilar nutqini shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlardan batamom qutulish oson kechmaydi. Nutq madaniyati o'qituvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim. O'qituvchi ovozi ravon, jarangdor, aniq va o'ziga jalb etadigan bo'lishi kerak. O'quv materialini qiyin joylarini o'qituvchi ovozini sekinlatgan holda tushuntirib, qolgan vaqtda tezroq vaqtda gapirishi kerak.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, sheva, fonetika, artikulyatsion, ijodiylik, ko'nikma, adabiy til me'yorlari, nutq odobi, malaka, talim-tarbiya, milliy qadriyatlar, estetik ta'sir.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov —Fidokor gazetasi muxbiri savollariga javob berar ekan, jamiyatimizning mohiyati xususida shunday deydi: “Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimizga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor beradi”. Ana shu ma'naviy va axloqiy qadriyatlar inson tafakkuri, nutqiy madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Zero jamiyat madaniyati nutqiy madaniyatsiz bo'lmaydi. —O'z fikrini mutlaqo mustaqil. Ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyinl. (I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori). Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq ya'ni talaffuz urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tolning tasviriy vositalardan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali

o`qish va so`zlay olish madaniyatini egallash demakdir. Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko`rinishlari va talablari bilan aloqadordir.

O`qituvchining ovozi, talaffuzi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o`quvchilar, ayniqsa, kichik sinflardagi o`quchilar uchun o`ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O`qituvchining tirik nutqidagi, kattadir, kichikdir, har qanday nuqson o`quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nuqson o`qituvchi nutqida muptazam kuzatilsa, o`quvchi o`qituvchidan nohaq bo`lsa-da, ranjigan hollarida mazkur nuqson asosida uni sirtdan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o`quvchilar o`zaro ana shunday o`qituvchi haqida gaplashganda, uni mazkur nuqsonli ovoz, talaffuz yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas albatta. O`qituvchi o`z tarbiyalanuvchilari bilan ko`proq auditoriyada, darsda, shuningdek sinfdan tashqari paytda nutqiy muloqotda bo`ladi. Uning nutqi ilmiy – pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli soxalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi. Uning o`ziga xosligi tarbiyachi ekanligi bilan harakterlanadi».

O`qituvchi nutqining pedagogik va psihologik asoslari. Har bir o`qituvchi nutqiy faoliyat turlari, nutq apparati, nutqning vazifalari, nutqning uslubiy turlari, o`qituvchi nutqining sifatlarini, nutq texnikasi asoslarini, pedagogik nutq muloqotning o`ziga xos xususiyatlarini va bashqalarni mukammalroq bilishi kerak.

Shu bilan birga o`qituvchi nutqining o`ziga xos xususiyatlarini, notiqlik mahoratini, nutq madaniyatining pedagogik – psihologik asoslarini chuqur bilishi kerak. O`qituvchi materiallarni aniq, to`g`ri, tushunarli ifodali bayon qilishda ovozi ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. Ilmiy tadqiqot ishlari shunday dalolat bermoqdaki, ruslar 1 minutda 120, inglizlar 120 dan 150tagacha, fransuzlar 110 so`zni talaffus qilar ekanlar. O`rtacha hammaga tushunarli bo`lishi uchun o`qituvchi 60 -80 so`zni talaffus etsa, talabga muvofiq bo`ladi. O`qituvchi nutqini lo`nda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa, u tinglovchilarga shuncha tushunarli bo`ladi va ular qalbida uzoq saqlanadi.

Chet tilida shirador, aniq, lo`nda fikr tuza olish malakasi va mashg`ulot tashkil etish mahorati chet tili o`qituvchilari uchun ham boshqa fan o`qituvchilari uchun ham birdek ahamiyatga ega. O`qituvchining nutqi qanchalik jarangdor

bo'lsa o'quvchilarni ham o'ziga jalb eta oladi. Endi o'qituvchining faoliyatida nutq haqida gap ketar ekan, nutqning o'rni qanchalik muhimligini o'rganamiz. O'qituvchi va o'quvchi dars jarayonidagi ular nutqi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va farqlar mavjud. O'qituvchi bu ko'nikma va malakaga ega pedagog hisoblanib u nutq madaniyatiga rioya qilgan holda so'zlashi kerak. Nutqiy madaniyat haqida gap ketar ekan nutqning madaniyligi demakki ta'sir doirasi quvvatini ta'sir etadigan tog'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, jo'yalilik, boylik, soflik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu sifatarning barchasini o'zida mujassam etgan nutq madaniy hisoblanadi, va o'qituvchi ana shu sifatlarga amal qilishi kerak. Nutq faoliyati nafaqat o'qituvchida balki boshqa kasb egalarida ham mukammal rivojlangan bo'lishi kerak. Dunyodagi har bir kasbni egallashda nutq madaniyati yuqori darajadagi quroldir. So'zlayotgan jarayonda ham nutq madaniyatiga rioya qilgan holda so'zlansa nutq go'zal va jozibali chiqadi.

Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi.